

## BOLALARDA PARAZITAR INVAZIYANING IMMUNOLOGIK MEXANIZMLARI

To‘laboyev S.O., Davlatov J.D.

Toshkent tibbiyot akademiyasi

Respublika Ixtisoslashtirilgan Allergologiya Ilmiy Markazi

Bolalar salomatligini himoya qilish muammosi bugungi kunda sog‘liqni saqlashni ustuvor vazifalaridan biridir. Hozirgi vaqtda sog‘liqni saqlash holatini belgilovchi omillardan biri ijtimoiy jihatdan aniqlangan kasalliklar, shu jumladan barcha parazitar kasalliklarning 99 foizini tashkil etuvchi — protozoonozlar va gelmintozlardir.

Parazitlar ko‘pincha bolalik davridagi surunkali ovqatlanish buzilishi, oshqozonichak traktikasalliklari, surunkali intoksikatsiya rivojlanishiga, organizm sensibilizatsiyasiga hissa qo‘sadi va immunitet zaiflashuvining asosiy omillari bo‘lib xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** Gelmintoz, lyambliya, askarida, immunitet, parazitar kasalliklar, antigenlar, antitelolar, Bronxial asthma.

### Dolzarbliги

Bugungi kunga qadar lyamblyoz, askaridoz, enterobiozning klinik ko‘rinishlari to‘liq o‘rganildi, ammo so‘nggi o‘n yilliklardagi global ekologik o‘zgarishlar, antibakterial vositalardan keng foydalanish, immunotropik va boshqa dorivor moddalar va boshqa bir qator omillar parazitar invaziyalarning klinik ko‘rinishini o‘zgartirdi va bu kasallikni qo‘sishimcha o‘rganishni talab qiladi

[Blaxter M. 2016. Cook G. C. 2016. Hayashi K. 2017. Hlavsa M. C. 2019].

Bundan tashqari, so‘nggi o‘n yil ichida odamlar, uy hayvonlari va mikroorganizmlarning ko‘chib yurishi(migratsiya) hajmi keskin o‘zgardi. Tropik iqlimi bo‘lgan mamlakatlarda va turli xil parazitlarning yashash joylari bo‘lgan boshqa joylarda ishlab chiqarilgan ( don, muzlatilgan go‘sht, chig‘anoq, baliq ) oziq-ovqat mahsulotlarini endi dunyoning istalgan mamlakatida topish mumkin. Yashirin parazitar infeksiya o‘zini aniq ko‘rsatmaydi va shuning uchun uzoq vaqt davomida shifokor yoki yuqumli kasalliklar bo‘yicha mutaxassisning ko‘rik doirasidan tashqarida qolishi mumkin.

Afsuski, lyamblya va nematodlarni tashxislashning ko‘plab usullari past sezgirlikka ega, sub’ektiv va ob’ektiv omillarga, shu jumladan lyamblyaning sistalari doimiy ajralib turmasligi , parazitlarni mikroskopik identifikatsiya qilish qiyinligi

asosiysi inson tanasidagi parazitlar faqat erkak gelmintlar ekanligi tashxisotni qiyinlashtiradi.

**Maqsad:** Maktabgacha yoshdagi bolalarda askaridoz, enterobioz va lyamblyozning tashxisi va kechuvining klinik-immunologik xususiyatlar

### **Ilmiy tekshirish metodi va materiali**

- So‘rovnoma usullari
- antropometrik tadqiqotlar ( og‘irligi, balandligi )
- Instrumental usullar
- Umumiyl qon tahlili
- Siydikning umumiy tahlili
- Najaasn parazit tuxumlari va sodda hayvonlar uchun tahlil qilish.
- Biokimoviy qon testi
- Kaprologiya
- IFA, IgE, IgG, SRO, LF.

## **NATIJA VA TAHLILLAR**

Bolalarda parazitar kasalliklarning sezilarli darajada ko‘pligi va tarqalishi o‘z navbatida allergik patologyaning ham ko‘payishiga sababchi bo‘lmoqda bu esa sog‘liqni saqlashning eng muhim vazifalaridan biri allergik kasalliklarga chalingan bolalarni oldini olish va samarali tashxislash va davolashdir. Shuni ta’kidlash kerakki, faqatgina bemorni dinamik, klinik va funksional kuzatish surunkali kasalliklarning to‘g‘ri tashxisini qo‘yishga imkon beradi.

### **3.1. Parazitar invaziya bilan og‘rigan bolalarda kasallikning klinik xususiyatlari va funksional o‘zgarishlar .**

Bizning tadqiqotimizda allergik kasalliklarga chalingan 3-14 yoshdagi 100 bola kuzatildi.

Bemorlarning yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlanishi quyidagicha.

#### **Jadval 3.1.**

Bemorlar Yoshi	Kontrol guruh n=20	Allergodermatozlar n=44	Bronxial astma n=21	SOB n=35	JAMI
3-7 yosh	16,2% (11)	33,8% (23)	14; 20,6%	20; 29,4%	68
8-14 yosh	17,3% (9)	40,4% (21)	7; 13,4%	15; 28,8%	52
Jami	20	44	28	35	120

Ma’lumki, immunitet tizimining shakllanishi – bu rivojlanish genlarini tartibga solishning atrof-muhit omillari (antigenlari) bilan o‘zaro ta’siri bilan belgilanadigan

jarayon. O'sishning ma'lum bosqichlarida gen depressiyasi va fenotipning gen regulyatsiyasini almashtirish va ayniqsa immunokompetent hujayralar funktsiyalari o'zgarishi sodir bo'ladi. Genetik nazoratdagi bunday o'zgarishlarning namoyon bo'lishini immun tizimining kritik davri deb atash taklif etildi [46.384b.]

J. B. Solomon (1978) kontseptsiyasiga ko'ra, inson ontogenezida verst ustunlari yoki muhim(kritik) bosqichlar (milestones) mavjud bo'lib, ular umumiyligi rivojlanishning o'tish davrlarini va immunitet tizimining ekvivalent holatlarini belgilaydi. Bemor bolalarning tanlangan kontingenti 3-7 va 8-14 yoshda bo'lganligi sababli, ushbu yosh davri kontseptsiyaga muvofiq inson immunitet tizimining shakllanishining beshinchi muhim davriga to'g'ri keladi.

O'rganilayotgan guruhlarda kasal bolalarning jinsga qarab taqsimlanishi 3.2-jadvalda keltirilgan.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Allergodermatozli bemorlarning 40,0% (26), 20,0% (13) – BA bilan, 29,2% (19) – SOB bilan kasallangan o'g'il bolalar. Allergodermatozli o'g'il bolalar soni 1,44 marta, BA bilan 1,63 marta, SOB bilan qizlarga qaraganda 1,19 baravar ko'p, bu Nisevich L. L. va boshqa mualliflarning erkaklarning bronxopulmonar sistemaning surunkali kasalliklariga moyilligi haqidagi ma'lumotlariga mos keladi. Ya'ni, o'g'il bolalar kasallikka ko'proq moyil bo'lib, bu erkaklar uchun kamroq genetik xavfsizlik va moslashish nazariyasiga mos keladi.

Anemiya pediatriyada juda keng tarqalgan kasallik ekanligi ma'lum. Bolalarda kamqonlikning tez-tez paydo bo'lishi ularning intensiv o'sishi, eritropoez jarayonining faolligi va shakllangan elementlar sonining progressiv o'sishi bilan bog'liq. Shu bilan birga, bolalarda gemopoez apparati funksional jihatdan yetuk emas va turli ta'sirlarga nisbatan juda zaifdir. Bolalarda uzoq muddatli anemiya gipoksiya rivojlanishi, chuqur to'qima va organ o'zgarishlari bilan birga keladi. Anemiya bilan og'rigan bolalar sog'iom tengdoshlaridan jismoniy va aqliy rivojlanishdan orqada qoladilar, ko'pincha interkurrent kasalliklardan aziyat chekishadi, surunkali patologik jarayonlar va turli xil asoratlarni rivojlanishiga moyil bo'lishadi. Anemiya xolatida fagotsitar tizim hujayralarida fagotsitoz pasayishi,perekisli oksidlanish reaksiyalari sustlashuvi va immun javob sekinlashuvi qayt etilgan[50.168-169b.]

Allergodermatozli bolalarning fon holatini tahlil qilib, BA bilan kasallangan 27 bola va 15 bolada 1 va 2 darajali anemiya, allergodermatozli 25 bola va BA bilan kasallangan 14 bolada raxit asoratlari borligi aniqlandi. Allergodermatozli guruhdagi 36 bolada va BA bilan kasallangan 17 bolada 1-2 darajali oqsil-energiya etishmovchiligi kuzatildi.

Shunday qilib, premorbid fonning xususiyatlari takroriy allergodermatoz, bronxial astma va surunkali obstruktiv bronxitga moyil bo'lgan xavf omillaridir.

## XULOSA

Birgalikda gelmintozli allergik patologiyalari bo‘lgan bolalarda immunitetning hujayrali va gumoral bo‘g‘inlarida muvozanat buzilganini ko‘rishimiz mumkin. Parazitar invaziya nafaqat allergik reaktsiyalarning kuchayishiga olib keladi, balki kasallik prognozining yomonlashishiga ham sabab bo‘ladi. Tadqiqotda quyidagi natijalarga erishildi: CD20+, CD16+, IgM, IgE, SRO, IL-4 darajasini oshgani va CD3+, CD4+, CD8+, IgG, IgA va IFN y darajasini pasaygani aniqlandi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

- 1.Vidal M.F.,Abrami P.,Lermeyez Dj.Anafilaksiya va idiosinkraziya.Press Med 1922;30:189-92
- 2.Kolxir.P.V.dokazatelnaya allergologiya-immunologiya.-M: prakticheskaya meditsina,2010.—528 s.
- 3.Roy Patterson.,Gremmer L.K.,Grinberger P.A. Allergik kasalliklar:diagnostika va davolash.2000.-768 s.
4. Shpeer.Aspirinli allergiya:klinik tadqiqod//Soutbern Med jurnal 1975;68:314-8
- 5.Stivenson D.D.Aspirinli astma bilan og‘rigan bemorlarda desensibilizatsiya:alternativ terapiya // J Astma.1983;20(1): 31-8
- 6.Dranik G.N.Klinik immunologiya va Allergologiya.LLC “Tibbiy axborot Agentligi,Moskva 2003
7. Klinik allergologiya.Tanlangan ma’ruzalar.Amaliy tavsiyalar L.A.Goryachkina, E.P.Terekhova, O.V.Sebekina,Moskva 2017